



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

Adabiyotlar

1. Asqarov A. O'zbekiston xalqining tarixi. 2-t. – T.: “O'qituvchi”, 1993.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: O'zadabiyotnashr, 1963.
3. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqiy ijodi. – Toshkent: “G'. G'ulom” 1994.
4. История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане. – Toshkent, 1991.
5. Qodirov R. G. Musiqa psixologiyasi. – Toshkent: “Musiqa” O'z.DK. 2005.
6. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – Toshkent: “G'afur G'ulom” nashriyoti. 1995.
7. Петрушин В. И. Музыкальная психология. – Москва: VLADOS. 1997.
8. Nurullayev F.G., Nurullayeva N.K. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

MANBASHUNOSLIKGA BIR NAZAR

D.A.AMONOV,

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
III bosqich PhD doktoranti, musiqashunos.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada musiqiy ilmga katta hissa qo'shgan atoqli qomusiy olimlarning ijodiy mahsuli bilan bir qatorda, ushbu manbalarni atroflicha o'rganib taqiq qilgan manbashunoslarning ijodiy izlanishlari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Risola, musiqiy, meros, ilm, tadqiqot, nazariy, manbashunoslik, nashr, asar, olim, ma'lumot, sharqshunos, musiqashunos, Forobiy, Ibn Sino.*

***Аннотация.** В данной статье даётся обзор средневековых трактатов о музыке, в месте стем особое внимание уделяется исследованию учёных востоковедов, изучавших эти труды.*

***Ключевые слова:** Трактат, музыка, наследие, наука, исследование, теоретическое, востоковедение, издание, труд, ученый, информация, востоковед, музыковед, Фараби, Ибн Сина.*

***Annotation.** In this article, along with the work of well-known scientists-encyclopedists who have made a great contribution to the science of music, the creative research of votakovologists who have comprehensively studied these sources is presented.*

***Key words:** Treatise, music, heritage, science, research, theoretical, oriental studies, publication, work, scientist, information, orientalist, musicologist, Farabi, Ibn Sina, translation.*

O'rta asr Sharq olimlari dunyo musiqashunosligining rivojiga katta hissa qo'shganlar, ularning fikrlari, nazariy qarashlari faqatgina Sharqda emas, yevropa olimlarining ham doim qiziqishiga sabab bo'lgan. Biroq faqat arab tilida yozilgan qo'lyozmalar ma'lum bo'lgan va shuning uchun ular faqat arab musiqasi bilan bog'liq deb hisoblanilgan. So'z O'rta asrda Sharqning yetuk bilimdonlarining musiqiy ijodlari haqida ketmoqda. X–XIII asrlarda asosan arab tilida yaratilgan risolalarda mantiqiy, nazariy, «jamlar» – lad tushunchalari, musiqashunoslikka oid atamalar yaratilgan. Keyingi X–XV asrlar davrlarga qaraydigan bo'lsak – Sharq musiqashunosligida Markaziy Osiyodan chiqqan ulamo va mutafakkirlar musiqiy ilmning shakllanishiga va uning rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar. Jumladan: – Al-Kindi (taxminan 800-870, Bag'dod)[1; 297-312], Abu Nasr Forobi (870-

950, Damashq) [2], Abu Abdulloh Xorazmiy (X asr) [3], Abu Ali Ibn Sino (980–1037) [4], Safiuddin Urmaviy (taxminan 1216—1294) [5], Abdulqodir Marog‘iy (1353-1435) [6], va boshqalar. Musiqiy ijodiyot masalalariga katta qiziqish IX-X asr manbalaridan boshlanadi. Musiqiy ijodiyotining nazariy yo‘nalishlari ham shakllanadi.

Abu Nasr Muxammad al-Forobi Falsafa, mantiq, tabiiy fan va aniq fanlar rivojiga katta hissa qo‘shgan yirik arab-musulmon mutafakkiri, ensiklopedisti, musiqa tarixshunosligida alohida o‘rin tutadi [2]. O‘tmishda ham, hozir ham mualliflar Forobiyning musiqa ilmiga oid asarlari soni va nomlanishi borasida sharhlashlari kabi turli fikrda bo‘lib, ba‘zilari chalkashliklarga yo‘l qo‘ygandek tuyuladi. Masalan, Bayhaqiy Forobiyning to‘rt jildli «Musiqaga oid» atalmish asari bor degan gap bilan cheklansa, Ibn Abu Useybia sanab o‘tgan Forobiyning 112 asarining nomlanishiga qarab o‘ndan ortig‘i musiqaga oid deb gumon qilish mumkin. Taniqli tadqiqotchi, ingliz sharqshunos musiqashunosi H. J. Farmer esa 11 asarni Forobiyning sof musiqiy risolalari yoki musiqaga oid qismlari bor risolalar yoki bilvosita musiqaga aloqador asarlar deb biladi. Abu Nasr Forobiy ijodini o‘rganish natijasida uning musiqa ilmiga oid quyidagi asarlarni yozganligi ma‘lum bo‘ldi: كتاب الموسيقى الكبير «Katta musiqa kitobi», كتاب إحصاء الإيقاع «Iyqo sanog‘i kitobi», كتاب الإيقاعات «Iyqolar kitobi», إحصاء العلوم «Ilmlar sanog‘i», «Ilmlarning paydo bo‘lishi» [7; 20-21]. Yuqorida keltirilgan asarlar Sharqda musiqashunoslik fanini vujudga kelishiga hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmas.

Abu Ali ibn Sino 428 hijriy yilda, ya‘ni 1036-1037 qamariy yilda vafot etgan. 58 yoshda vafot etgan. Demak, taxminan 980 yillarda tug‘ilgan [8;18]. Degan fikrni Saldadze oldi surmoqda. Ibn Sinoning barcha ilmiy asarlarida – katta hajmdagi في الطب كتاب القانون «Tib qonunlari kitobi», الشفاء كتاب «Shifo kitobi» kabilarda yoki kichik-kichik maqolalarida, she‘riyatga bag‘ishlangan فن في الشعر «She‘r san‘ati» yoki tilshunoslikka oid أسباب حدوث لحروف «Tovushlarning hosil bo‘lish sabablari»da, odatiy arab tilidagi emas, fors tilida yozilgan «Donishnoma» نامه دانش «Bilim kitobi» va رساله نبضيه «Tomir urishi haqida risola»da, allomaning yoshligida Buxoroda yozilgan المجموع «To‘plam» yoki katta yoshida Hamadonda ta‘lif etilgan القلبية الادوية «Yurak dorilari»da – barcha-barchasida musiqa haqida so‘z bor. Ibn Sino musiqa bilan yoshligidan muntazam shug‘ullangan. [7;31]

Olim o‘z asarida falsafa, tibbiyot, mantiq, fizika, matematika va h.k. kabi fanlar bilan bir qatorda musiqiy ilmning chuqur bilimdoni sifatida gavdalantiradi.

Yana bir olim I. Rajabov, “Abu Ali ibn Sino muzika haqida maxsus asarlar yozish bilangina chegaralanmadi, balki u muzika nazariyasiga bag‘ishlangan katta-katta asarlarini meditsina kitoblariga ham kiritdi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta. Abu Ali ibn Sino o‘zining meditsinaga oid o‘lmas asarlarida, muzikaning hissiy ta‘sir kuchiga katta baho bergani holda, ruhiy kasalliklarini davolashda uni yuksak qadrladi. Xususan, Ibn Sinoning «Qonunu fit-tibb» kitobida bir necha o‘rinda muzika asarlarini ruhiy kasalliklarga «shifo dasturi» sifatida tavsiya etiladi va uning shu kabi asarlarida muzika nazariyasini sharhlab beradigan alohida bo‘lim ajratiladi.” [9;9]

Butun dunyo tan olgan tabobat ilmining tengsiz bilimdonlardan Ibn Sinoni Yuqorida ko'rsatilgani dek I. Rajabov uni musiqa yordamida insonlarni davolash konsepsiyasini oldinga surmoqda.

Abu Abdulloh Xorazmiy, o'zidan oldingi olimlarning musiqa haqidagi ta'limotini Abu Abdulloh al-Xorazmiy davom ettirib, matematika fanining turkumiga kiritadi. Musiqiy bo'lim (b. 235—246) uch fasldan iborat. Birinchi fasl — «Musiqa sozlarining atalishlari va ular bilan bog'liq narsalar haqida» — boshida har doimgidek, «musiqa» so'zning etimologiyasi beriladi, keyinchalik turli musiqiy asboblarning nomlari, o'sha davrda O'rta Osiyo hududida qo'llanilgan va ularning kelib chiqish joyini ko'rsatgan holda. U musiqa asboblarning shakli va tuzilishiga to'xtalib, jumladan: tanbur, surnay, chang shaxruda va h.k. Ayniqsa izchillik bilan u Barbot-ud sozining etimologiyasini, torini va pardalarini tasvirlab beradi (udning torlari to'rta). Eng qalini (tori)— bu “bamm” keyingisi (tori) “maslas”, uchinchi (tori) “masna” va to'rtinchi eng yupqasi — “zir”. So'ng Abu Abdulloh Xorazmiy ud sozining to'rt pardasiga to'xtaladi: birinchi — ko'rsatkich barmoq, ikkinchi — o'rta barmoq, uchinchi — nomsiz barmoq va to'rtinchi jimjiloq barmoq [10;99].

Ikkinchi fasl «Donishmandlar kitoblarida keltirilgan musiqiy jamlar haqida», uchinchi fasl «Iste'moldagi iyqolar haqida». Ushbu muallifning musiqani matematika faning bo'limiga kiritilishi, musiqani matematikaning bir bo'limi sifatida qarashini bil vosita bildiradi.

Ushbu qomusiy olimlarning ijodiy mahsullarini dunyoning ko'pgina tillarda (fors, ingiz, nemis va h.k.), asl matnda va tarjima qilingan holda nashr qilingan. Chet ellik musiqashunos-san'atshunos tadqiqotchilar tomonidan ushbu manbalarni o'rganish uchun talaygina ilmiy izlanishlar olib borilgan [11].

Bu borada manbashunoslar e'tiborini, birinchi navbatda, qomusiy olimlardan Forobiy, Ibn Sino, Safiaddin Abdulmo'minning musiqiy-nazariy merosiga katta qiziqish bildirildi.

Z. Oripovning so'zlaridan “X-XV asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini, turli jihatdan, jumladan, musiqashunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik va yana boshqa jihatlardan o'rganish XX asrning o'ttizinchi yillaridan qizg'in pallaga kirdi” [12; 5].

Bu borada ilk kashfiyotchilardan yevropalik tadqiqotchilar hisoblanadi, birinchilar qatorida fransuz olimi baron DErlanjeni keltirish mumkin. Uning butun hayoti davomidagi mashaqqatli mehnatining samarasi natijasida o'laroq 1930-1939

yillarda Parijda chop etilgan «Arab musiqasi» nomli bir necha jildli kitobdan iborat bo'ldi. DErlanjening ushbu mualliflar asarlari bo'yicha tarjima, tadqiqot va musiqiy nazariy boblarning sharhlarni o'z ichiga olgan.

Sharq musiqa madaniyati tarixiga qiziqqan har bir kishi uchun katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega edi. Uning asari deyarli o'sha paytda ensiklopedik-mal'umotnoma manbasi sifatida qo'llanilgan. Bu ish kelajakda Z. Yusuf[13], Muxammad Taki Binish[14], M. Xifni[15], L. Manik[16], H. J. Farmer[17] kabi tadqiqotchilar tomonidan davom ettirildi.

Safiaddin al-Urmaviyning «Bixdjat-ar rux» musiqiy risolasining nashr etilishi musiqiy manbashunoslik tarixida muhim hodisa bo'ldi. Taniqli ingliz olimi H.J.

Farmerning «Arab musiqasi tarixi» va «Arab musiqasi manbalari»[17] asarlari oʻrta asrlarda yozilgan arab tilidagi musiqa risolalarning tarixiy jarayondagi oʻrnini belgilab berdi. Mazkur asarlarda Yevropa musiqasiga boʻlgan taʼsiri bilan bir qatorda yunon musiqiy nazariyasi bilan boʻlgan aloqalari koʻrsatilgan.

Eronlik tadqiqotchilar Abdulqodir Guyandning «Taʼlikati Maragi, Makasid al-alxan» (Texron 1966), Toki Binishani ham alohida taʼkidlab oʻtish kerak.

Oʻrta asrlarda yaratilgan sharqda musiqiy ilmga oid asarlarni oʻtgan asr va hozirgi sharqshunos va musiqashunos tadqiqotchilar tomonidan keng oʻrganilgan. Sharq manbashunos tadqiqotchilardan biri bu rus olimi Aleksandr Aleksandrovich Semyonovdir [18].

Yillar mobaynida A.Semyonovning ishtiroki va umumiy tahriri ostida «Sobranie vostochnix rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR»ning yetti jildi nashr etildi. Aleksandr Aleksandrovich Semyonov (1873-1958) koʻp qirrali rus tarixchi-oʻrtaasrshunos, sharqshunos, eronshunos, qoʻlyozma merosining bilimdoni va koʻpgina oʻrta asr manbalarining tarjimoni va islomshunosdir. Semyonovning tugatilmagan holdagi tarjimalari bilan ham musiqashunoslari oʻzlarining Oʻrta asr ilmiy nashrlarida uning nazariy va estetik qarashlariga koʻp murojaat qilgan. Olimning qoʻlyozma shaklida tarjimalariga murojaat qilib, oʻz ilmiy ishlarida uning maʼlumotlaridan foydalangan tadqiqotchilar: V.M. Belyaev, S.M. Veksler, V.S.Vinogradov, I. Akbarov, F.M. Karomatov, Yu.G.Kon, T.S.Vizgo, I.Radjabov, A.Radjabov, D.A. Rashidova va boshqalar [19; 258-296].

Shu va boshqa manbalarning topilmagan nusxalarini qidirib topish, tanqidiy matnlarini tayyorlash, nashp etish, til xususiyatlarini oʻrganish orqali hozirgi zamon musiqashunosligi va musiqa amaliyoti asoslarini tadqiq etishda musiqiy manbashunoslik fani yetakchi oʻrin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Peter Adamson. Before Essence and Existence: al-Kindi's Conception of Being. Journal of the History of Philosophy. Baltimore. Том 40, Изд. (июль 2002)
2. Даукеева С. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки. Москва 2000
3. Абу 'Абдаллах Мухаммад ал-Харазми. Мифатих ал-'улум. Лейден, 1968; Хайруллаев М.М., Бахадиров Р.М. Абу Абдаллах ал-Хорезми. X век. М: Наука, 1988
4. З.Т.Арипов Об особенностях образования музыкаловедческой терминологии в классическом арабском языке. Т., 2017
5. Мехди Хоссейни. *О магаме в персидском музыкознании X – XV вв*
6. Абдуллаева С.А. Азербайджанские музыкальные инструменты очаровывают мир. Баку, «НУРЛАР» Изд. Полиграфический Центр, 2016.
7. Орипов З. *Арабча мусиқа терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиёти (X-XV асрлар Марказий Осиё олимларининг мусиқашуносликка оид асрлари асосида) Т., 2019. Б. 20-21*
8. Салдадзе Л.П. Ибн Сина. Авиценна. Страницы великой жизни. – Ташкент: Гафура Гуляма, 1985.
9. И.Ражабов Мақомлар масаласига доир. Т.,1963.
10. Хайруллаев М.М., Бахадиров Р.М. Абу Абдуллах ал-Хорезми. – М.: Наука, 1988.
11. Kiesewetter R.G., Die music der Araber. Leipzig,1842, Ўзбекистон ССР Фанлар Академиясининг Шарқ қўлёзмалари тўплами. Т. I – V. Тахрирланган ва Ўзбекистон ССР Фанлар академияси аъзоси, Тожикистон ССР Фанлар академиясининг ҳақиқий аъзоси,

тарих фанлари доктори, профессор А.А. Семенов иштирокида бўлиб ўтди. Семенов. Тошкент, 1952–1960 йиллар

12. З.Орипов «X-XV Асрлар Марказий Осиё мусиқа манбашунослиги» Т., 2017.

13. Ибн Сина. «Китаб аш-Шифа», «Ар-Рийадийат» «Джавами илм ал-мусиқа». Матни таёрловчи З. Юсуф. Қоҳира.,1956.

14. *Абд ал-Кадир Мараги. «Мақасид ал-алхан». Бахтимама-и Таки Биниш. Техрон.,1966.*

15. *Абу Наср ал-Фаробий. «Китаб ал-мусиқа ал-кабир» Матн таёрловчи – Г.М. Хашаб: шархловчи – Махмуд ал-Хифни. Қоҳира., 1967.*

16. *Manik.L Das Arabische Ton system im Mittelalter. Leiden, 1969.*

17. Farmer H. G. “A History of Arabian Music to the 13 th century”. London. 1929; Farmer H. G. “The Sources of Arabian Music. An Annotated Bibliography of Arabic Manuscripts which deal with the Theory, Practice and History of Arabian Music from the Eighth to the Seventeenth Century”. Leiden. 1965.

18. Семенов А.А. Библиографический указатель восточной и европейской литературы о восточной музыке. Ташкент, 1938.

19. Джумаев А.Б., Семенов А.А. Исследователь художественной культуры народов Средней Азии и Ирана // Иран наме. – № 3 (27). – Астана, 2013.